


## Turkmaniston Prezidentining O`zbekistonga davlat tashrifiga doir

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(51 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(51 KB\)](#)



**O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning taklifiga binoan Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov 2018 yil 23-24 aprel` kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo`ladi.**

An`anaviy do`stlik va o`zaro ishonch muhitida o`tdigan ikki tomonlama uchrashuvlar va oliy darajadagi muzokarlarda ko`p qirrali O`zbekiston - Turkmaniston munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlash masalalari, dolzarb mintaqaviy va xalqaro muammolar muhokama qilinishi rejalashtirilgan.

Tashrif dasturida davlat rahbarlarining Toshkent shahridagi Ashxobod parkining ochilish marosimida ishtirok etishi ko`zda tutilgan. Ushbu maskan mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o`rtasidagi do`stlik va yaqin qo`shnichilik munosabatlarining yorqin ramzlaridan biriga aylanishi kutilmoqda. Shuningdek, chegaradosh Xorazm viloyatiga tashrif ham rejalashtirilgan.

Tashrif doirasida O`zbekiston va Turkmaniston etakchi iqtisodiy tuzilmalarining biznes-forumi bo`lib o`tadi.

Muzokaralar yakuni bo`yicha davlat rahbarlarining Qo`shma bayonoti qabul qilinishi, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya, ta`lim va sport sohalarida ikki tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan salmoqli hujjatlar to`plami imzolanishi kutilmoqda.

21.04.2018 19:44 da elon qilingan, marta korib chiqildi